



ALISHER NAVOIY “XAMSA”SIDAGI EGRILIK VA TO’G’RILIK TIMSOLLARI

Olimova Ruxshona Ravshan qizi

Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 2-
kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15533068>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 27th May 2025

KEYWORDS

Alisher Navoiy, Xamsa, Hayrat ul-abror, to‘g‘rilik, egrilik, axloq, pand-nasihat, parvona, nay, timsollar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoirmiz Alisher Navoiy ijodining yuksak namunasi “Xamsa” to‘plami, xususan, uning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g‘oyalar, egrilik va to‘g‘rilik mohiyati tahlil qilinadi. Dostonning o‘ninchi maqolatidan o‘rin olgan timsollar parvona, nay, yo‘l va sham misollarida egrilik oqibatlari yoritilib, o‘quvchilarga pand-nasihat yo‘li bilan to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlash muhimligi uqtiriladi

Alisher Navoiy bobomiz juda kichik yoshlaridan she‘r va musiqaga havas qo‘ygan, eski o‘zbek adabiyotimizning asoschilaridan biri bo‘lgan buyuk shoirimizdir. U umr bo‘yi badiiy ijod bilan shug‘ullangan va bizga ulkan ma‘naviy meros qoldirgan. Shulardan eng muhimlaridan biri “Xamsa” asaridir.

“Xamsa” so‘zi arabcha bo‘lib, “besh” degan ma‘noni anglatadi. Adabiyotimizda bu besh dostonidan iborat asarlar to‘plamiga aytiladi. Alisher Navoiy “Xamsa”sini yaratish orqali bu janrni ilk bor turkiy tilda yaratgan va adabiyotimizda yangi sahifa ochgan. Uning “Xamsa”siga quyidagi besh doston kiradi: “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy”. Bu dostonlar turli mavzular — pand-nasihat, axloqiy-falsafiy, sarguzasht, muhabbatga bag‘ishlangan.

“Xamsa”ning birinchi dostoni bo‘lgan “Hayrat ul-abror” axloqiy-falsafiy ruhda yozilgan pand-nasihat asaridir. U 3988 baytdan, 64 bobdan va 20 maqolatdan iborat. Biz bu maqolada o‘ninchi maqolatni tahlil qilamiz. Unda to‘g‘rilik, rostlik, adolat tushunchalari chuqur yoritilgan va turli o‘xshatmalar orqali ifodalangan. Shoir turli majoziy timsollar orqali insoniy fazilatlarini tushuntiradi. Masalan, yo‘l misoli bilan: yo‘l qancha to‘g‘ri bo‘lsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetish mumkin; egri yo‘l esa odamni chalg‘itadi, kechiktiradi. Shu tarzda inson ham to‘g‘ri yo‘l tutsa, halollik bilan yashasa, hayoti ravon bo‘ladi. Nay misolida musiqiy timsol keltiriladi: to‘g‘ri sozlangan nay chiroyli kuy taratib, odamlarni xushnud etsa, egri naydan chiqqan kuy quloqqa yoqmaydi. Bu timsol orqali shoir insonning to‘g‘ri yo‘l tutishi zarurligini uqtiradi.

Sham va kapalak timsoli orqali esa shoir egrilikning fojeali oqibatini ko‘rsatadi. Shamning yorug‘ligiga intilgan kapalak egri harakat qilgani sababli shamga urilib nobud bo‘ladi. Bu timsol orqali egrilikka moyillik inson hayotini qanday izdan chiqarishini ko‘rsatadi. Yana bir obraz bu sarv daraxti. Shoir yorning qaddini sarvga o‘xshatadi. Sarv daraxti to‘g‘ri, tik bo‘lganligi sababli yashil rangini yo‘qotmaydi, xazon bo‘lmaydi. Bu timsol to‘g‘rilikning doimiylik, barqarorlik ramzi ekanligini bildiradi. Maqolotda shoir egrilik va to‘g‘rilikni kundalik hayotdagi ko‘plab jihat va holatlar bilan qiyoslab beradi. To‘g‘rilik insonni yuksaklik

sari olib chiqsa, egrilik esa tubanlikka olib borishini isbotlaydi. Egrilikka berilgan inson jamiyatda qonunga bo'ysunmaydi, o'z xohishiga ko'ra harakat qiladi, boshqalarning moliga ko'z olaytiradi.

Bu mazmun orqali shoir har bir insonni rostgo'ylik, halollik, adolatli bo'lishga da'vat etadi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu maqolatda berilgan ibratlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy "Xamsa"si va uning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" faqat adabiy asar bo'lib qolmasdan, balki axloqiy, falsafiy, tarbiyaviy jihatdan ham ulkan ahamiyat kasb etadi. O'ninchi maqolatda egrilik va to'g'rilik timsollari orqali hayotiy haqiqatlar bayon qilingan. Har bir inson bu maqolatdan to'g'ri xulosa chiqarishi, rostlikni hayot mezoniga aylantirishi lozim. To'g'rilik ezgulik, adolat va taraqqiyot kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Abdug'aniyev B. Alisher Navoiy asarlari tahlili. Toshkent: O'qituvchi, 2006.
3. G'aniyeva N. Navoiy ijodida axloqiy-falsafiy qarashlar. Toshkent: Fan, 1991.
4. Yusupova D. Alisher Navoiy "Xamsa"sining badiiy xususiyatlari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Xamsa" va "Hayrat ul-abror" maqolalari. Toshkent, 2001.
6. Adabiyot darsligi, 5-sinf. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2017.

INNOVATIVE
ACADEMY